

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI SHAROITIDA MEDIATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Abdullaev Bahodir Ahmedovich

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Namangan, O'zbekiston

bahodir.1977@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22080599>

Annotatsiya: Maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi sharoitida mediatsiyani rivojlantirishning dolzarb muammolari ijtimoiy falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Mediatsiyaning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy funksiyalari, uning nizolarni hal etish, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirishdagi o'rni ochib beriladi. Tizimli, aksiologik, qiyosiy, fenomenologik va institutsional yondashuvlar asosida mediatsiya samaradorligi huquqiy baza bilan bir qatorda professional tayyorgarlik, mediativ madaniyat, institutsional ishonch va tomonlarning ixtiyoriy ishtirokiga bog'liqligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: mediatsiya, nizo, ijtimoiy funktsiya, iqtisodiy funktsiya, siyosiy dialog, mediativ madaniyat, ijtimoiy hamkorlik.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЕДИАЦИИ В УСЛОВИЯХ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Абдуллаев Баходир Ахмедович

Исследователь Наманганского государственного университета

Наманган, Узбекистан

bahodir.1977@mail.ru

Аннотация: В статье с социально философских позиций анализируются актуальные проблемы развития медиации в условиях Стратегии развития Нового Узбекистана. Раскрываются социальные, экономические и политические функции медиации, ее значение в разрешении конфликтов, укреплении общественного доверия и развитии сотрудничества. На основе системного, аксиологического, сравнительного, феноменологического и институционального подходов обосновывается, что эффективность медиации определяется не только правовой базой, но и профессиональной подготовкой медиаторов, уровнем медиативной культуры, институциональным доверием и добровольностью участия сторон.

Ключевые слова: медиация, конфликт, социальная функция, экономическая функция, политический диалог, медиативная культура, социальное сотрудничество.

NEW UZBEKISTAN DEVELOPMENT STRATEGY AND CURRENT PROBLEMS OF MEDIATION DEVELOPMENT

Abdullaev Bakhodir Achmedovich

Researcher at Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

bahodir.1977@mail.ru

Abstract: The article examines the current problems of mediation development in the context of the New Uzbekistan Development Strategy from a social philosophical perspective.

It analyzes the social, economic and political functions of mediation and its role in conflict resolution, strengthening social trust and promoting cooperation. Based on systemic, axiological, comparative, phenomenological and institutional approaches, the study argues that the effectiveness of mediation depends not only on the legal framework but also on professional mediator training, mediation culture, institutional trust and the voluntary participation of the parties.

Keywords: mediation, conflict, social function, economic function, political dialogue, mediation culture, social cooperation.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, manfaatlar xilma xilligining kuchayishi va o'zaro bog'liqlikning ortishi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiy jarayonlarning jadallashuvi, mehnat munosabatlarining yangi shakllari, xususiylar tadbirkorlikning kengayishi, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi va siyosiy jarayonlarda turli manfaatlarining namoyon bo'lishi nizolarni butunlay bartaraf etish imkonini bermaydi. Aksincha, nizolarning tabiati va ularni boshqarish usullari o'zgarib bormoqda. Shu sababli zamonaviy jamiyat uchun muhim masala nizolarning mavjudligi emas, balki ularni ijtimoiy barqarorlikni buzmaydigan, tomonlarning manfaatlarini hisobga oladigan va konstruktiv hamkorlikka olib keladigan usullar orqali boshqarishdan iborat.

Mazkur nuqtai nazardan mediatsiya alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mediatsiya uchinchi, nisbatan neytral tomon ishtirokida nizolashayotgan tomonlarning muloqotini tashkil etish, ularning manfaatlarini aniqlash va o'zaro maqbul yechimga erishish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan jarayon sifatida shakllangan. C. Moore mediatsiyani konfliktni boshqarishning turli strategiyalari bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida tahlil qilib, uning samaradorligini tomonlarning ehtiyojlari, manfaatlari va munosabatlari xususiyatlari bilan bog'laydi [1].

Mediatsiya nazariyasining rivojlanishida R. Bush va J. Folger tomonidan ishlab chiqilgan transformativ yondashuv muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuvda mediatsiyaning natijasi faqat nizoni tugatish bilan cheklanmaydi. Jarayon ishtirokchilarning o'z imkoniyatlarini anglashini va boshqa tomonning pozitsiyasini tushunish qobiliyatini kuchaytirishi mumkin [2]. Mazkur qarash mediatsiyaning ijtimoiy funksiyasini tushunish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

L. Riskin mediatsiya amaliyotini mediatorning maqsadlari, strategiyalari va usullariga ko'ra turlicha tasniflash imkonini beruvchi konseptual modelni taklif qilgan. Uning yondashuvda mediatsiya muammoning qamrovi va mediator faoliyatining xususiyatlari bilan farqlanadi. Muammo faqat huquqiy masala sifatida emas, balki biznes manfaatlari, shaxsiy va professional munosabatlar hamda jamoaviy manfaatlar doirasida ham ko'rilishi mumkin [3]. Bu yondashuv mediatsiyaning ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalarini bir biridan mutlaqo ajratib bo'lmasligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda mediatsiyaning institutsional shakllanishi huquqiy tizimning modernizatsiyasi bilan bevosita bog'liq. Mamlakatda mediatsiya institutining huquqiy asoslari yaratilishi nizolarni sudgacha va suddan tashqari tartibda hal qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Q. Matkarimov va F. Xudayberganova O'zbekiston sharoitida mediatsiyaning fuqarolik va iqtisodiy jarayonlarda qo'llanishini tahlil qilib, milliy amaliyotda mavjud ayrim

muammolar va huquqiy bo'shliqlarni ko'rsatgan [6]. Ushbu tadqiqotlar mediatsiya institutining shakllanishi uchun huquqiy mexanizmlarning o'zi yetarli emasligini ko'rsatadi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, aksiologik, qiyosiy, fenomenologik va institutsional yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi tashkil etadi. Tizimli yondashuv mediatsiyani alohida huquqiy protsedura sifatida emas, balki jamiyatning huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan ijtimoiy institut sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Bunday yondashuv mediatsiyaning bir sohadagi natijasi boshqa sohalardagi munosabatlarga ham ta'sir ko'rsatishi mumkinligini hisobga olishga imkon beradi.

Aksiologik yondashuv mediatsiya jarayonining asosida yotuvchi qadriyatlarni aniqlash uchun qo'llanildi. Bu yerda tenglik, hurmat, ixtiyoriylik, mas'uliyat, ishonch va hamkorlik kabi qadriyatlarning nizoni konstruktiv hal qilishdagi o'rni tahlil qilinadi. I. Abdullayevaning aksiologik tadqiqotida axloqiy tushunchalar badiiy matnda statik va bir ma'noli birliklar emas, balki ichki jihatdan murakkab va dinamik mazmunga ega kategoriyalar sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatilgan [5]. Mazkur metodologik kuzatuv bizga mediatsiyadagi qadriyatlarni ham tayyor va o'zgarmas qoidalar sifatida emas, balki tomonlarning muloqoti davomida qayta anglandigan ijtimoiy ma'nolar sifatida ko'rish imkonini beradi.

Qiyosiy yondashuv orqali mediatsiyaning xalqaro nazariy modellari bilan O'zbekistonda shakllanayotgan amaliyot o'rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlanadi. Ayniqsa, transformativ va fasilitativ yondashuvlar mediatsiyaning maqsadi faqat kelishuvga erishishdan iborat emasligini ko'rsatish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [2; 3].

Fenomenologik yondashuv nizoni faqat tashqi huquqiy hodisa sifatida emas, balki uning ishtirokchilari tomonidan qanday idrok qilinishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga imkon beradi. Nizoning obyektiv mazmuni bilan tomonlarning subyektiv tajribasi o'rtasidagi farq mediatsiyaning zarurligini tushuntiruvchi muhim omillardan biridir.

Institutsional yondashuv mediatsiyaning rivojlanishini huquqiy normalar, professional mediatorlar, sud tizimi, advokatura, fuqarolik jamiyati institutlari, biznes subyektlari va ta'lim tizimi o'rtasidagi aloqalar doirasida tahlil qilish uchun ishlatildi. Bunday yondashuv mediatsiyaning barqaror rivojlanishi faqat qonun qabul qilinishi bilan emas, balki uning atrofida samarali institutsional muhit yaratilishi bilan bog'liqligini asoslashga imkon beradi.

Natijalar. Mediatsiyaning ijtimoiy mohiyatini aniqlash uchun avvalo uning oddiy nizoni tugatish protsedurasidan farqini ko'rsatish zarur. Sud jarayonida nizo huquqiy me'yorlar asosida vakolatli organ tomonidan hal qilinadi. Mediatsiyada esa yakuniy qarorning mazmunini tomonlarning o'zi shakllantiradi. Mediator qaror chiqaruvchi emas, balki tomonlarning muloqotini tashkil etuvchi va kelishuv imkoniyatlarini kengaytiruvchi subyekt hisoblanadi. Shu jihatdan mediatsiya jamiyatdagi vertikal boshqaruv mexanizmlarini to'ldiruvchi gorizontali o'zaro ta'sir mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Tomonlar o'zaro qarama qarshilikdan hamkorlikka o'tish imkoniyatini oladi. Bu jarayonda nizoning huquqiy tomoni bilan bir qatorda uning ijtimoiy va psixologik komponentlari ham hisobga olinadi.

C. Moore mediatsiya jarayonini konfliktning kelib chiqish sabablari, tomonlarning manfaatlari, mavjud munosabatlar va ehtimoliy yechimlarni kompleks ravishda ko'rib chiqishni talab qiluvchi jarayon sifatida izohlaydi [1]. Shu nuqtai nazardan mediatsiyaning ijtimoiy funksiyasi nizoni tugatishdan ko'ra kengroq mazmunga ega. U buzilgan muloqotni qayta tiklashga, ijtimoiy aloqalarni saqlab qolishga va keyingi nizolarning ehtimolini kamaytirishga qaratiladi.

Mediatsiyaning ijtimoiy funksiyasini uch darajada ko'rish mumkin. Birinchi daraja individual daraja bo'lib, bunda shaxs o'z manfaatlari va ehtiyojlarini aniq ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ikkinchi daraja guruhiiy daraja bo'lib, unda tashkilotlar, jamoalar yoki boshqa ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi aloqalar tiklanadi. Uchinchi daraja institutsional daraja bo'lib, unda jamiyatning nizolarni zo'rvonlik yoki faqat ma'muriy usullar bilan emas, balki dialog orqali boshqarish qobiliyati kuchayadi.

R. Bush va J. Folger tomonidan ilgari surilgan transformativ model ushbu jarayonni shaxsning o'z imkoniyatlarini anglash va boshqa tomonning insoniy pozitsiyasini tan olish qobiliyatining kuchayishi bilan bog'laydi [2]. Ushbu modeldan kelib chiqib, mediatsiyaning ijtimoiy natijasini faqat imzolangan kelishuv bilan o'lchash metodologik jihatdan yetarli emas. Kelishuvga erishilmagan holatda ham tomonlarning o'zaro munosabatlari konstruktiv tus olishi, yangi muloqot kanallari paydo bo'lishi va kelgusidagi ziddiyatlarning oldini olish mexanizmlari shakllanishi mumkin.

Mediatsiyaning iqtisodiy funksiyasi uning zamonaviy jamiyatdagi eng muhim amaliy jihatlaridan biridir. Iqtisodiy munosabatlarda nizoning uzoq davom etishi nafaqat bevosita moliyaviy yo'qotishlarga, balki vaqt, ishchi kuchi, boshqaruv resurslari va biznes aloqalarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Mediatsiyaning iqtisodiy samaradorligi, avvalo, nizoni hal qilishning tranzaksion xarajatlarini kamaytirish imkoniyati bilan belgilanadi. Uzoq davom etadigan sud jarayoni tomonlardan huquqiy xizmatlar, vaqt va tashkiliy resurslarni talab qiladi. Mediatsiya esa tomonlarning o'zaro kelishuviga asoslanganligi sababli ayrim nizolarda vaqt va resurslardan samaraliroq foydalanish imkonini beradi.

M. Moffitt va R. Bordone tomonidan tahrirlangan nizolarni hal qilish bo'yicha fundamental tadqiqotda nizolarning tuzilishi, tomonlarning manfaatlari, qaror qabul qilish jarayonlari va nizoni boshqarishning turli shakllari o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqiladi [4]. Mazkur yondashuv mediatsiyaning iqtisodiy funksiyasini faqat sud xarajatlarini kamaytirish bilan chegaralamaslik kerakligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda mediatsiyaning fuqarolik va iqtisodiy munosabatlardagi imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega. Q. Matkarimov va F. Xudayberganova tadqiqotida mediatsiyaning fuqarolik va iqtisodiy protsessdagi o'rni, milliy qonunchilikdagi ayrim muammolar va xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan [6]. Ushbu ilmiy xulosalar mediatsiyaning iqtisodiy funksiyasi uchun institutsional shart sharoitlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Biroq iqtisodiy samaradorlikni faqat xarajatlarni kamaytirish bilan o'lchash bir tomonlama yondashuv bo'ladi. Mediatsiyaning iqtisodiy ahamiyati ishonch kapitalini saqlash bilan ham bog'liq. Tadbirkorlik muhitida tomonlarning kelishuvga erishish qobiliyati biznes subyektlari o'rtasidagi uzoq muddatli aloqalarning barqarorligini ta'minlaydi. Demak, mediatsiya bevosita iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish bilan birga, bilvosita iqtisodiy ishonch va hamkorlikni saqlash mexanizmi vazifasini ham bajaradi.

Mediatsiyaning siyosiy funksiyasi uning eng murakkab va ko'p qirrali jihatlaridan biridir. Siyosiy munosabatlarda manfaatlar to'qnashuvi odatda iqtisodiy yoki maishiy nizolarga qaraganda kengroq ijtimoiy oqibatlarga ega. Shu sababli siyosiy mediatsiyaning asosiy vazifasi tomonlardan birining mutlaq g'alabasini ta'minlash emas, balki qarama qarshi manfaatlarni konstruktiv muloqot doirasida boshqarishdan iborat.

BMTning Samarali mediatsiya bo'yicha qo'llanmasida mediatsiya jarayonining tayyorgarligi, rozilik, xolislik, inklyuzivlik, milliy egalik, xalqaro huquq va normativ asoslar, muvofiqlik hamda sifatli tinchlik kelishuvlari kabi fundamental tamoyillarga e'tibor qaratilgan [7]. Mazkur tamoyillar mediatsiyaning siyosiy funksiyasini tushunishda muhim nazariy asos yaratadi.

Biroq siyosiy mediatsiya mutlaq betaraflikni oddiy texnik holat sifatida tushunishni talab qilmaydi. BMT qo'llanmasida xolislik mediatsiya jarayonining muhim tamoyili sifatida ko'rsatiladi, biroq siyosiy jarayonning murakkabligi mediator oldida turli manfaatlarni muvozanatlashtirish vazifasini qo'yadi [7]. Shu sababli siyosiy mediatorning professional salohiyati faqat muzokara texnikalarini bilish bilan emas, balki siyosiy kontekstni tushunish, manfaatlar nisbatini baholash va tomonlar o'rtasidagi ishonchni saqlash qobiliyati bilan belgilanadi.

L. Riskinning modeli ham bu masalani tushunishga yordam beradi. Mediatorning faoliyati faqat tor huquqiy masalalarga qaratilishi mumkin, biroq ayrim holatlarda nizo shaxsiy, professional, institutsional yoki jamoaviy manfaatlar bilan bog'liq kengroq muammolarni qamrab oladi [3]. Shuning uchun siyosiy mediatsiyada muammoning real ko'lamini aniqlash uning samaradorligining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Birinch muammo professional mediatorlar tayyorlash bilan bog'liq. Mediatorning faoliyati huquqiy bilimlar bilan cheklanmaydi. U muloqot psixologiyasi, konfliktologiya, muzokara texnikalari, etik me'yorlar va manfaatlar tahlili bo'yicha ham yetarli kompetensiyaga ega bo'lishi kerak. Shu sababli mediatorlarni tayyorlash tizimini faqat qisqa muddatli o'quv kurslari bilan chegaralash mediatsiya institutining uzoq muddatli rivojlanishi uchun yetarli emas.

Ikkinchi muammo mediatsiya madaniyatining shakllanishi bilan bog'liq. Jamiyatda nizoni hal qilishning an'anaviy modeli ko'pincha qaror chiqaruvchi uchinchi tomonga murojaat qilishga asoslanadi. Mediatsiya esa tomonlarning o'zlari mas'uliyatni o'z zimmasiga olishini talab qiladi. Shuning uchun mediatsiyaning rivojlanishi huquqiy madaniyat bilan bir qatorda kelishuv madaniyatining ham shakllanishini taqozo etadi.

Uchinchi muammo mediatsiyaga bo'lgan ijtimoiy ishonch masalasidir. Agar fuqarolar yoki biznes subyektlari mediatorning xolisligiga, maxfiylikka va mediatsiya natijasining amaliy ahamiyatiga ishonmasa, huquqiy imkoniyatlarning mavjudligi real talabni avtomatik ravishda yuzaga keltirmaydi.

To'rtinchi muammo mediatsiyaning iqtisodiy jihatdan qulayligini ta'minlashdir. Mediatsiya xizmatlari uchun to'lov tizimi tomonlarning imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Aks holda mediatsiya faqat moliyaviy jihatdan kuchli subyektlar foydalanadigan mexanizmga aylanishi mumkin.

Beshinchi muammo raqamli mediatsiyaning rivojlanishi bilan bog'liq. Zamonaviy texnologiyalar geografik masofani kamaytirib, tomonlarning masofadan turib muzokara olib borish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, raqamli mediatsiya maxfiylik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, texnik xavfsizlik va mediatorning professional mas'uliyati bilan bog'liq yangi muammolarni yuzaga keltiradi.

Mediatsiyaning ijtimoiy falsafiy mazmunini tushunishda aksiologik yondashuv alohida ahamiyatga ega. Chunki nizo ko'pincha faqat moddiy manfaatlarining to'qnashuvi emas. Uning ortida adolat, hurmat, qadr qimmat, tan olinishi, mas'uliyat va xavfsizlik kabi qadriyatlar ham

mavjud bo'ladi. Mediatsiya jarayonida tomonlarning qadriyatlarini o'zaro to'qnashadi, biroq shu bilan birga ular qayta talqin qilinishi ham mumkin. I. Abdullayevaning tadqiqotida axloqiy tushunchalarning dinamik va ichki jihatdan ziddiyatli xarakteri, shuningdek, ularning mazmunini anglashda subyektning faol ishtiroki muhimligi ko'rsatilgan [5]. Bu xulosani mediatsiya jarayoniga bevosita ko'chirish emas, balki metodologik analogiya sifatida qo'llash mumkin. Mediatsiyada ham tomonlar o'z qadriyatlarini dastlabki shaklda emas, balki muloqot jarayonida qayta anglashlari mumkin.

O'zbekiston sharoitida mediatsiyani rivojlantirish bir necha o'zaro bog'liq yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim.

Birinchi yo'nalish huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishdir. Mediativ kelishuvlarning bajarilishi, mediatorlarning professional maqomi, mediatsiyaning turli sohalarida qo'llanishi va raqamli mediatsiya masalalari izchil huquqiy tartibga solinishi zarur.

Ikkinchi yo'nalish professional tayyorgarlikni kuchaytirishdir. Mediatorlarni tayyorlash dasturlarida konfliktologiya, ijtimoiy psixologiya, muzokara nazariyasi, kommunikativ texnologiyalar, axloqiy mas'uliyat va raqamli xavfsizlik masalalari uyg'unlashtirilishi lozim.

Uchinchi yo'nalish mediatsiya madaniyatini rivojlantirishdir. Fuqarolarga nizoning mavjudligi har doim ham sudlashuvni anglatmasligi, kelishuv va muzokara ham huquqiy manfaatlarni himoya qilishning legitim shakli ekanligi tushuntirilishi kerak.

To'rtinchi yo'nalish iqtisodiy mediatsiyani rivojlantirishdan iborat. Tadbirkorlik subyektlari uchun mediatsiya xizmatlaridan foydalanishning qulay mexanizmlari yaratilishi, biznes assotsiatsiyalari va professional mediatorlar o'rtasidagi hamkorlik kuchaytirilishi mumkin.

Beshinchi yo'nalish siyosiy va ijtimoiy mediatsiya imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganishdir. Mediatsiyaning faqat fuqarolik va iqtisodiy nizolar bilan cheklanib qolmasdan, jamoatchilik manfaatlari, mehnat munosabatlari, mahalla darajasidagi nizolar va boshqa ijtimoiy qarama qarshiliklarni konstruktiv boshqarishdagi imkoniyatlarini tadqiq etish muhim.

Muhokama. Mediatsiya nazariyasining rivojlanishi uning funksiyalarini faqat huquqiy doirada izohlash yetarli emasligini ko'rsatmoqda. C. Moore mediatsiyani konfliktning murakkab tabiatini hisobga oladigan amaliy jarayon sifatida ko'rsa [1], R. Bush va J. Folger mediatsiyaning transformativ imkoniyatlariga urg'u beradi [2]. L. Riskin esa mediator faoliyatining turli yo'nalishlarini tizimlashtirib, mediatsiya muammosining qamrovi va mediator strategiyalari o'rtasidagi aloqani ko'rsatadi [3].

Mazkur yondashuvlarning umumiy jihati mediatsiyani mexanik kelishuv protsedurasi sifatida tushunishdan voz kechishdir. Biroq ular o'rtasida muhim farqlar mavjud. Transformativ model mediatsiyaning shaxsiy va munosabatlarga oid natijalarini alohida ta'kidlaydi. Riskin modeli esa mediatorning faoliyati va strategiyalarini tasniflashga ko'proq e'tibor qaratadi. Moore yondashuvida esa konfliktni boshqarishning amaliy mexanizmlari va mediatorning strategik faoliyati kengroq ko'rib chiqiladi [3].

M. Moffitt va R. Bordone tahriridagi tadqiqot nizolarni hal qilish jarayonini qaror qabul qilish, manfaatlar, munosabatlar va institutsional muhit bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi [4]. Bu yondashuv mediatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini birlashtirish uchun muhim. Chunki iqtisodiy nizo ko'pincha faqat iqtisodiy manfaat emas, balki ishonch va kelgusidagi hamkorlik masalasini ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston sharoitidagi tadqiqotlar esa xalqaro nazariy modellarni milliy huquqiy va institutsional muhit bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Q. Matkarimov va F. Xudayberganova mediatsiyaning fuqarolik va iqtisodiy protsessdagi ahamiyatini tahlil qilib, milliy amaliyotdagi ayrim muammolarni aniqlagan [6]. Shu sababli O'zbekistonda mediatsiyani rivojlantirish xorijiy modellarni to'liq ko'chirishga emas, balki mavjud ijtimoiy va huquqiy muhitni hisobga olgan holda moslashtirishga asoslanishi kerak.

BMTning Samarali mediatsiya bo'yicha qo'llanmasida ko'rsatilgan tayyorgarlik, rozilik, xolislik, inklyuzivlik, milliy egalik va muvofiqlik tamoyillari mediatsiyaning siyosiy va ijtimoiy funksiyalarini institutsional jihatdan tushunish imkonini beradi [7]. Ayniqsa, milliy egalik tamoyili O'zbekiston uchun muhim metodologik ahamiyatga ega. Mediatsiya institutining samaradorligi uning tashqi model sifatida joriy qilinishiga emas, balki milliy huquqiy tizim va jamiyatning ijtimoiy tajribasi bilan uyg'unlashishiga bog'liq.

Shu bilan birga, I. Abdullayevaning aksiologik tadqiqoti bilan mediatsiya masalasini bog'lash mediatsiyaning qadriyatlar bilan ishlash xususiyatini yanada chuqurroq ko'rish imkonini beradi. Mazkur manbada axloqiy kategoriyalarning dinamik va ichki ziddiyatli tabiati ko'rsatilgan [5]. Bizningcha, mediatsiya jarayonining o'ziga xosligi ham tomonlarning dastlabki pozitsiyalarini o'zgarmas qadriyatlar sifatida emas, balki muloqot jarayonida qayta anglanishi mumkin bo'lgan pozitsiyalar sifatida ko'rishidir. Bu fikr mediatsiyaning ijtimoiy falsafiy mohiyatini tushuntirishda muhim nazariy natija hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari mediatsiyani zamonaviy jamiyatda faqat nizolarni muqobil hal qilish vositasi sifatida baholash uning haqiqiy ijtimoiy imkoniyatlarini to'liq ochib bermasligini ko'rsatdi. Mediatsiya ijtimoiy munosabatlarni qayta tiklash, iqtisodiy aloqalarni saqlash va siyosiy manfaatlarni konstruktiv dialog asosida muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi kompleks institut sifatida namoyon bo'ladi.

Birinci xulosa shundan iboratki, mediatsiyaning ijtimoiy funksiyasi tomonlar o'rtasida kelishuvga erishish bilan cheklanmaydi. Uning muhim natijasi muloqotning qayta tiklanishi, tomonlarning bir birini tushunish imkoniyatining kengayishi va kelgusidagi nizolarning oldini olish mexanizmlarining shakllanishidir.

Ikkinchi xulosa mediatsiyaning iqtisodiy funksiyasiga taalluqlidir. Mediatsiya nizolarni hal qilish bilan bog'liq vaqt va tashkiliy xarajatlarni kamaytirish, biznes aloqalarini saqlab qolish va tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy ishonchni tiklash imkonini beradi. Shu sababli uning iqtisodiy samaradorligini faqat sud xarajatlarni qisqartirish mezonini bilan baholash yetarli emas.

Uchinchi xulosa mediatsiyaning siyosiy funksiyasi bilan bog'liq. Siyosiy mediatsiya qarama qarshi manfaatlarni muvofiqlashtirish, inklyuziv muloqotni rivojlantirish va nizolarning destruktiv shakllarga aylanishining oldini olish imkonini beradi. Shu jihatdan mediatsiya siyosiy barqarorlikning bevosita vositasi bo'lishdan ko'ra, siyosiy muloqotning institutsional infratuzilmasini mustahkamllovchi mexanizm sifatida muhimdir.

To'rtinchi xulosa O'zbekistonda mediatsiyaning kelgusidagi rivojlanishi huquqiy bazani takomillashtirish bilan bir qatorda mediativ madaniyatni shakllantirishni ham talab etadi. Professional mediatorlarni tayyorlash, aholining mediatsiya imkoniyatlari haqidagi bilimlarini oshirish, biznes muhitida mediatsiyani kengaytirish va raqamli mediatsiyaning huquqiy hamda axloqiy asoslarini ishlab chiqish muhim vazifalardir.

Beshinchi xulosa mediatsiyaning aksiologik mazmuniga taalluqlidir. Mediatsiya jarayonida ixtiyoriylik, tenglik, hurmat, xolislik, mas’uliyat va hamkorlik kabi qadriyatlar faqat tashkiliy tamoyil emas, balki ijtimoiy munosabatlarni qayta qurish vositasiga aylanadi. Shu sababli mediatsiyaning samaradorligini baholashda huquqiy natija bilan bir qatorda ijtimoiy va qadriyatga oid natijalarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida mediatsiyani rivojlantirishning strategik yo‘nalishi uni sud tizimining oddiy muqobili sifatida emas, balki nizolarni oldindan boshqarish, manfaatlarni muvofiqlashtirish, ijtimoiy ishonchni kuchaytirish va konstruktiv muloqot muhitini yaratishga xizmat qiluvchi kompleks institut sifatida shakllantirishdan iborat. Mazkur yondashuv mediatsiyaning huquqiy imkoniyatlarini uning ijtimoiy falsafiy mazmuni bilan birlashtirishga imkon beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda O‘zbekistonda mediatsiyaning real amaliy samaradorligini statistik ma’lumotlar asosida baholash, mediatsiyadan foydalanuvchilarning ijtimoiy xususiyatlarini o‘rganish, iqtisodiy nizolardagi mediatsiyaning xarajat samaradorligini aniqlash hamda raqamli mediatsiyaning ijtimoiy va axloqiy muammolarini tahlil qilish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlar sifatida qaralishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Moore C. W. The Mediation Process, Practical Strategies for Resolving Conflict. 3rd ed. San Francisco, Jossey Bass, 2003. ISBN 9780787964467.
2. Bush R. A. B., Folger J. P. The Promise of Mediation, Responding to Conflict Through Empowerment and Recognition. San Francisco, Jossey Bass, 1994. ISBN 0787900273.
3. Riskin L. L. Understanding Mediators’ Orientations, Strategies, and Techniques, A Grid for the Perplexed // Harvard Negotiation Law Review. 1996. Vol. 1. P. 7–51.
4. Moffitt M. L., Bordone R. C., eds. The Handbook of Dispute Resolution. San Francisco, Jossey Bass, 2005. ISBN 9780787975388.
5. Абдуллаева И. Aksiologическое осмысление системы нравственных понятий в повестях А. П. Чехова // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. 2025. Т. 3. № 11/S. С. 282–286. DOI 10.47689/2181-3701-vol3-iss11/S-pp282-286.
6. Matkarimov Q. Q., Xudayberganova F. Ya. Fuqarolik sudlov faoliyatida mediatsiyani qo‘llashning protsessual xususiyatlari va bunda advokatning mediator sifatidagi ishtiroki // Oriental Renaissance, Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. Vol. 2. Issue 4. P. 503–512.
7. United Nations Secretary General. United Nations Guidance for Effective Mediation. New York, United Nations, 2012. 26 p.